

## SHAXS IJTIMOYIY TARMOQDAGI SAHIFASI ORQALI AXBOROT ULASHAYOTGANDA NIMALARGA E`TIBOR BERISHI KERAK?

Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon og`li  
Namangan davlat universteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya  
yo`nalishi talabasi

## WHAT SHOULD A PERSON PAY ATTENTION TO WHEN SHARING INFORMATION THROUGH HIS SOCIAL NETWORK PAGE?

Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon ogli  
Faculty of law of Namangan State University Jurisprudense  
student

## НА ЧТО СЛЕДУЕТ ОБРАТИТЬ ВНИМАНИЕ ЧЕЛОВЕКУ, ДЕЛЯСЬ ИНФОРМАЦИЕЙ ЧЕРЕЗ СВОЮ СТРАНИЦУ В СОЦИАЛЬНОЙ СЕТИ?

Мухаммадиев Бахромжон Кодиржон угли  
Студент юридического факультета Наманганского  
государственного университета по юриспруденции

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada avtor axborot tarqatishdan oldin axborotning to'g'riligi va ishonchliligiga nafaqat ommaviy axborot vositalari xodimlarining, jurnalistlarining, balki oddiy fuqarolarning ham nima uchun e'tibor qaratishi kerakligi masalasini yoritishga harakat qilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, fake, Internet jahon axborot tarmog'i, ishonchini suiiste'mol qilish, axborot, yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar.

**Abstract:** In this article, autor tried to explain why not only mass media workers, journalists, but also ordinary citizens should pay attention to the accuracy and reliability of information before disseminating information.

**Key words:** Globalization, fake, Internet world information network, abuse of confidence, news, false, inaccurate or distorted information.

**Аннотация:** В этой статье автор попытался объяснить, почему не только работники средств массовой информации, журналисты, но и простые граждане должны обращать внимание на точность и достоверность информации перед ее распространением.

**Ключевые слова:** глобализация, фейк, мировая информационная сеть Интернет, злоупотребление доверием, информация, ложная, неточная или искаженная информация.



e-mail:

[bahromjonmuhammadiyev571@gmail.com](mailto:bahromjonmuhammadiyev571@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0008-1803-9276>

Telefon raqami:  
+998940035133

## KIRISH

Globalashuv sharoitida voqealar, ayniqsa axborotlar oqimi misli ko'rilmagan darajada tezlashdi. Eng yomoni, ular orasida yolg'on axborotlar ham bor. Yolg'on axborot tarqatishga qarshi kurashish dolzarb mavzu bo'lib, doimo muhokama markazida bo'lib kelmoqda. Uning yechimi esa nafaqat media vakillariga, balki barcha darajadagi boshqaruv idoralariga ham bog'liq. E'tirof etish kerakki, O'zbekistonda ochiqlikka, oshkoralikka asoslangan demokratik siyosat olib borilmoqda. Bu esa, albatta, ommaviy axborot vositalari (OAV) faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanayotir. Zero, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 33-moddasida har kimning fikrlash, so'z va erkinligi huquqiga doir normalar kafolatlangan. Unga ko'ra, har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi<sup>1</sup>.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xo'sh, feyk nima degani? Feyk (inglizcha fake) – soxta, qalbaki, degan ma'nolarni anglatadi. Mutaxassislarining so'zlariga ko'ra, bunday ma'lumotlarga haqiqatga juda o'xshab ketadigan yolg'on xabarlar, maxsus dasturlar orqali o'zgartirilgan fotosuratlar, montaj qilingan videoroliklar, ijtimoiy tarmoqlarda boshqa shaxslar (odatda, mashhur insonlar) nomidan ochilgan "yolg'on akkauntlar" misol bo'la oladi. Globalashuv jarayonining tezlashishi, internet orqali cheksiz imkoniyatlarning paydo bo'lishi, ommabop ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanilishi

natijasida yolg'on xabarlarining tarqalishi va zarar yetkazishi xavfi ham oshib bormoqda. Shu sababli, hozirgi kunda butun dunyoda feyklarga qarshi kurashni kuchaytirish, buning uchun, avvalo, huquqiy bazani mukammallashtirish, feyklarga qarshi qonun bilan kurashishga urinish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ma'lumot o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni 31 milliondan oshgan<sup>2</sup>. Sir emaski, bugungi kunda fuqarolar asosiy axborotlarni ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bu boradagi qonunchilikka nazar tashlaydigan bo'lsak, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunning 12<sup>1</sup>-moddasi 2-qismiga muvofiq, veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining egasi, shu jumladan, bloger hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot joylashtiriladigan internet jahon axborot tarmog'idagi o'z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborotni joylashtirishdan avval uning to'g'riligini tekshirishi, shuningdek, joylashtirilgan axborotning noto'g'riligi aniqlangan taqdirda uni darhol o'chirib tashlashi shart<sup>3</sup>. "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi<sup>4</sup> qonunning 6-moddasida jurnalistning majburiyatlari belgilangan bo'lib, o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida jurnalist o'zi tayyorlayotgan materiallarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirishi va xolis axborot taqdim etishi shartligi ko'rsatib o'tilgan. Qonunning 15-moddasida jurnalist o'zi tayyorlayotgan va tarqatayotgan xabarlar hamda materiallarning haqqoniy bo'lishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'lishi belgilab qo'yilgan. Jurnalist tuhmat va haqoratdan iborat axborot berganda Ma'muriy javobgarlik va Jinoyat kodekslariga ko'ra javobgarlikka tortilishi mumkinligi ham qayd etilgan. Shu bilan birga, qonunchilikda jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on axborotni tarqatgan shaxs BHMning 100 baravari (33 million so'm)gacha jarimaga tortilishi mumkin. Shuningdek, yolg'on

<sup>1</sup> O'zbekistonning 30.04.2023 kungi yangi tahrirdagi konstitutsiyasi.

Manba, lex uz: <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445542>

<sup>2</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/15/internet-users/>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni.

Manba, lex uz: <https://lex.uz/docs/-83472>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni. Manba, lex uz: <https://lex.uz/docs/-9540>

axborot tarqatganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs ushbu huquqbuzarlikka takroran yo'l qo'ysa, quyidagi jazo choralaridan biri qo'llanilishi mumkin: BHMning 200 baravari (66 million so'm)gacha miqdorda jarima; 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari; 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari; 2 yilgacha ozodlikni cheklashi belgilangan<sup>5</sup>. Qo'shni mamlakatlar qonunchiliklarini qaraydigan bo'lsa ham, ularning qonunchiligida ham yolg'on axborot tarqatganlik uchun javobgarlik belgilangan. Masalan, Qozog'iston qonunchiligiga ko'ra, soxta ma'lumot tarqatganlar ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi va jazolanadi. Mamlakatda yolg'on ma'lumot tarqatish 20 MKI miqdorida jarima va 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. 2015-yilda yangi Jinoyat kodeksi qabul qilingandan so'ng yolg'on ma'lumot tarqatish jinoyat (274-moddaga ko'ra) sifatida qarala boshlandi. Oliy sud axborot bazasidagi ma'lumotlarga ko'ra, soxta ma'lumot tarqatganlik uchun 2015-2016-yillarda 2 ta, 2017-yilda 4 ta, 2018-yilda 1 ta, 2019-yilda 3 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Lekin yolg'on ma'lumot tarqatganlik uchun javobgarlik faqat 274-modda bilan cheklanmaydi. Jinoyat kodeksining bir qancha moddalari bilan jazolanadi. Masalan, 273-moddada "Terrorchilik akti to'g'risida yolg'on xabar berish" qayd etilgan. Bunday holda, 5000 MEC miqdorida jarima, axloq tuzatish ishlari yoki besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki xuddi shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladi. Soxta narsalarni tarqatganlarning aksariyati 274-modda bilan ko'rib chiqiladi. "Ko'rinib turgan yolg'on ma'lumotlarni tarqatish" bo'limida jamoat tartibini buzuvchi, fuqarolar yoki tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazish xavfini tug'diruvchi ma'lumotlar uchun 400 soatgacha bo'lgan muddatga axloq tuzatish ishlari va jamoat ishlari uchun ko'zda tutilgan; jamiyat yoki davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari. Ba'zan bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda esa yolg'on ma'lumot tarqatish ikki xil moddada ko'rib chiqiladi va ko'pincha jarima bilan jazolanadi<sup>6</sup>. Mamlakatimizning amaldagi

qonunchiligida feyk xabarlarini tarqatganlik uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgarlik belgilanmagan bo'lsa-da, noto'g'ri (yolg'on) xabarlarini tarqatish va buning natijasida zararli oqibatlar kelib chiqishining oldini olish maqsadida qonun hujjatlarida bir qancha normalar mavjud. Xususan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunning 12<sup>1</sup>-moddasida qanday axborot turlari internetda tarqatilishi mumkin emasligi nomma-nom sanab o'tilgan. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunning 34-moddasida<sup>7</sup> shaxslarning raddiya berish va javob qaytarish huquqi belgilangan bo'lib, bu ham yolg'on xabarlariga nisbatan qarshi turish kafolatlaridan biri hisoblanadi. Ko'pincha telegram messenjeri orqali va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda u yoki bu tovar yoki ishlab chiqaruvchini obro'sizlantirish orqali raqobatchilarga iqtisodiy zarba berishga qaratilgan ovozli, foto va videoxabarlariga duch kelamiz. Ammo raqobatchini xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatganlik uchun Jinoyat kodeksining 192-moddasida javobgarlik belgilanganligini unutmash kerak. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasida hamda Jinoyat kodeksining 139-moddasida tuhmat, ya'ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatganlik uchun javobgarlik belgilangan<sup>8</sup>. Shuningdek, yolg'on xabar tarqatganlik uchun fuqaroviy javobgarlik ham kelib chiqishi mumkin. Xususan, ma'naviy zarar shaxsning or-nomusi, sha'ni va qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini haqoratlovchi ma'lumotlarni tarqatish tufayli yetkazilgan bo'lsa, uni yetkazuvchining aybidan qat'i nazar, qoplanishi lozimligi Fuqarolik kodeksida<sup>9</sup> ko'rsatib o'tilgan. Ma'lumot uchun: Adliya vazirligi tomonidan xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda aynan jurnalist va blogerlar, tizim matbuot xizmati xodimlarining huquqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, qonunchilikda belgilangan tartiblarni tushuntirish, shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlash kabi qator mavzularda 10 dan ortiq turli seminar-trening, o'quv mashg'uloti, master klasslar o'tkazildi. Unda 700 dan ziyod ishtirokchi qatnashdi. Ular uchun maxsus

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 244<sup>6</sup>-modda. Yolg'on axborot tarqatish. Manba, lex uz: <https://lex.uz/docs/-111453#-2965834>

<sup>6</sup> <https://aikyn.kz/155002/zhalgan-akparattyn-zhazasy-bar>

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni. Manba, lex uz: <https://lex.uz/docs/-1106870#-1107854>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.

Manba, lex uz: <https://lex.uz/docs/-97664>

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. 2- qism. Manba, lex uz: <https://lex.uz/docs/-180552?ONDATE=05.11.2023#-197152>

qo'llanmalar ishlab chiqildi va tarqatildi, turli mediakontent (videorolik, infografika)lar tayyorlanib muntazam ravishda tarqatib kelinmoqda.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, nafaqat OAV xodimlari, balki ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari yuqoridagi qonun normalarini bilishi kerak. Bu ularning huquqiy ongi va ko'nikmalarini, mediasavodxonlik bo'yicha tushunchalarini oshiradi. Bu to'g'ri ma'lumot tarqatish mas'uliyatini oshirish bilan birga turli yolg'on axborotlardan himoyalaniish vositasi hamdir. Har qanday shaxs, u kim bo'lishidan qat'i nazar, jurnalist bo'ladimi yoki bloger, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisimi faktlarni e'lon qilishda ularning to'g'riligini tekshirib ko'rishi, aholi ishonchini suiiste'mol qilishdan ehtiyot bo'lishi maqsadga muvofiq. Zero, qonunni bilmaslik shaxsni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekistonning 30.04.2023 kungi yangi tahrirdagi konstitutsiyasi. lex uz: <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445542>

2. O'zbekiston Respublikasining Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. lex uz: <https://lex.uz/docs/-83472>
3. "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni. lex uz: <https://lex.uz/docs/-9540>
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 244<sup>6</sup>-modda. Yolg'on axborot tarqatish. lex uz: <https://lex.uz/docs/-111453#-2965834>
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. 2-qism. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-180552?ONDATE=05.11.2023#-197152>
6. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-97664>
7. <https://aikyn.kz/155002/zhalgan-akparattyn-zhazasy-bar>
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/15/internet-users/>
9. <https://lex.uz/docs/-1106870#-1107854>

